NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH SIYOSATINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI

Madrahimova Muhayyo Sultonboyevna
TDTU “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
Тел: 97 777 66 26

Annotatsiya. Bugungi kunda jamiyatimizning har bir a’zosi, shu jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslar ham teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishlari lozim. Ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishlari, ta’lim olishlari, mehnat qilishlari va madaniy hayotdan bahramand bo‘lish huquqlarini ta’minlash, ularning hayot sifatini yaxshilash davlat siyosatining asosiy va muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada bugungi kunda O‘zbekistonda ta’lim, sog‘liqni saqlash va mehnat bozorida nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun yaratilgan sharoitlar to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Professional ta’lim, inklyuziv rivojlanish, reabilitatsiya, ijtimoiy himoya, ijtimoiy hayot, ijtimoiy dastur

Аннотатция. В современном обществе каждый его член, включая лиц с ограниченными возможностями, должен обладать равными правами и возможностями. Обеспечение их активного участия в общественной жизни, доступа к образованию, трудоустройству и возможности пользоваться культурной жизнью, а также повышение качества их жизни является одним из основных и важных направлений государственной политики. В данной статье рассматриваются современные условия, созданные в Узбекистане для лиц с органиченными возможностями в сфере образования, здравоохранения и рынка труда.

Ключевые слова: Профессиональное образование, инклюзивное развитие, реабилитация, социальная защита, социальная жизнь, социальная программа

Annotation. Nowadays, every member of our society including persons with disabilities, should have equal rights and opportunities. Ensuring their active participation in social life, access to education employment, and enjoyment of cultural life, as well as improving their quality of ife, is one of the main and important derections of state policy. This article discusses the current conditions created in Uzbekistan for persons with disabilities in the fields of education, healthcare, and the labor market.

Keywords: Professional education, inclusive development, rehabilitation, social protection, social life, social program

Kirish

Bugungi kunda nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash masalasi davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Jamiyatning barqaror rivojlanishi, aholining barcha qatlamlari uchun teng imkoniyatlarni yaratish va

ISSN 3030-3907

inklyuziv ijtimoiy muhitni shakllantirish zamonaviy davlat boshqaruvidagi eng muhim vazifalardan sanaladi. Shu boisdan nogironligi bo‘lgan shaxslarni himoya qilish, ularning huquq va erkinliklarini ta’minlash, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish bo‘yicha kompleks yondashuvlarni shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur maqolada nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash siyosatining mohiyati, uning zamonaviy tendensiyalari, xalqaro standartlar bilan uyg’unlashuvi, shuningdek, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – nogironlarning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi, reabilitatsiya va inklyuziv rivojlanish imkoniyatlarini kengaytishga qaratilgan samarali siyosiy mexanizmlarni asoslab berishdir.

So‘ngi yillarda mamlakatimizda nogironligi bo‘lgan shaxslarni himoya qilish sohasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Prezident farmonlari, qarorlar ishlab chiqilib hayotga tadbiq etilmoqda. Ayniqsa, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi” negizida ular uchun ijtimoiy dasturlar ta’lim, sog‘liqni saqlash, bandlik va infratuzilma sohalarida yangi imkoniyatlar yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasida nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash siyosati sohasida bir qator milliy va xorijiy tadqiqotlar mavjud. Jumladan, A.Islomov(2018), N.Karimova(2020) kabi o‘zbek olimlari nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy himoya tizimini tahlil qilgan, ularning huquqiy va ijtimoiy jihatlarini batafsil yoritgan. Ushbu tadqiqotlar asosan davlat dasturlari, reabilitatsiya xizmatlari va ijtimoiy himoya tizimi samaradorligini o‘rganishga qaratilgan.

Xorijiy tadqiqoqtchilardan T.Shakespeare(2013), M.Groce(2015) kabi olimlar nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari, inklyuziv ta’lim va ijtimoiy integratsiya jarayonlarini keng qamrovli o‘rganishgan. Ularning ishlari nogironligi bo‘lgan shaxslarni jamiyatga integratsiya jarayonlarini keng qamrovli o‘rganishgan. Ularning ishlari nogironligi bo‘lgan shaxslarni jamiyatga integratsiya qilish bo‘yicha xalqaro tajribani ko‘rsatadi va O‘zbekistonda joriy etilayotgan siyosatni solishtirma tahlil qilish imkonini beradi.

“Yangi O‘zbekiston - bu xalq manfaati hamma narsadan ulug‘ degan g‘oya amaliy ishlar bilan o‘z tasdig‘ini topayotgan mamlakatdir”[1].

Yangi O‘zbekistonimizda olib borilayotga islohotlar asosida albatta, inson va uning manfaatlari uchun degan tamoyil birinchi o‘rinda turadi. Hozirgi vaqtda ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish masalasi juda ham dolzarbdir.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan nogironlarga qaratilayotgan e’tibor asosida O‘zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 15-oktabrdagi O‘RQ – 641-son qonunining.[2] 4-moddasida nogironligi bo‘lgan shaxslarning qadr-qimmatini, ularning shaxsiy

ISSN 3030-3907

mustaqilligini, tanlash erkinligini hurmat qilish, nogironlik belgisiga ko‘ra, nogironlikni aniqlash va oldini olishi, ularning ta’lim olishi va ishga joylashishiga ko‘maklashish, ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatishning zamonaviy shakl va mexanizmlarni belgilash, nogironlikni belgilashda qo‘llanilayotgan usullarni tubdan takomillashtirish va boshqa qoidalarni nazarda tutish belgilangan. Qonun bilan nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini ta’minlashning muhim prinsiplari yaratildi. Shu bilan birga tibbiy - ijtimoiy ekspert komissiyalari faoliyatlari ham yanada takomillashtirilmoqda. Bu qonun bilan nogironligi bo‘lgan shaxslarning bir qator huquq va erkinliklari mustahkamlandi. Qonunning 40-moddasida quyidagilar ifodalangan: Nogironligi bo‘lgan shaxslarning umumiy, o‘rta, o‘rta maxsus, professional, maktabdan tashqari, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’limida quyidagi imtiyozlar berildi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limi, professional ta’lim muassasalarida va tashkilotlarda zarurat bo‘lganda esa, ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning oliy ta’limi oliy ta’lim muassasalarida va tashkilotlarida amalga oshiriladi.

Statsionar davolash-profilaktika yoki reabilitatsiya muassasalarida davolash kursini o‘tayotgan nogironligi bo‘lgan bolalar uchun mazkur muassasalarda o‘quv mashg‘ulatlari tashkil etiladi.

Professional ta’lim olish uchun maxsus shart – sharoitlarga muhtoj nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun turli xil ixtisoslashtirilgan professional ta’lim muassasalari tashkil etiladi va ularda o‘qitish davlat ta’lim standartlari asosida olib boriladi.

Bundan tashqari, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun OTM da davlat granti asosida qo‘shimcha qabul kvotalari ajratiladi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning avtotransport vositalari uchun ajratilgan to‘xtab turish joylaridan foydalanganlik uchun haq olinmaydi.

I va II gurux nogironligi bo‘lgan shaxslarga DXM va YAIDXP orqali xizmat ko‘rsatishda 50 foiz miqdorida chegirma qo‘llaniladi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslardan jamoat birlashmalari ramzlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun davlat boji olinmaydi.

Nogironligi bo‘lgan 18-yoshgacha bo‘lgan bolalar, 18 yoshdan katta bolalikdan nogironligi bo‘lgan shaxslarga nafaqa tayinlashda davlat xizmatlari bepul ko‘rsatiladi.

I va II gurux nogironligi bo‘lgan shaxslar bolalarini davlat maktabgacha ta’lim muassasalariga qabul qilishda imtiyozli ro‘yxatga kiritilgan.

Tegishli tibbiy xulosa asosida muhtoj shaxslarga protez-ortapediya anjomlari va texnikalari beriladi.

ISSN 3030-3907

Nogironligi bo‘lgan shaxslar sanotoriy - kurortda bepul davolanadi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy ta’minlash tizimi bu nafaqat moddiy yordam, balki keng ko‘lamli ijtimoiy xizmatlarni qamrab oladi. Ayniqsa, yuqorida biz aytib o‘tgan ya’ni, ularni ta’lim olishi, ish bilan band qilinganlik darajasidan tashqari, reabilitatsiya markazlari, psixologik maslahat xonalari, ijtimoiy pedagoglar xizmatlari zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlash zarur. Bu kabi ishlar hozirgi zamon talabidir.

2017-2021yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasining[3]. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarida ham pensionerlar, nogironlar, yolg’iz keksalar va aholi boshqa ehtiyojmand toifalarining to‘laqonli hayot faoliyatini ta’minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish belgilangan edi. Bundan tashqari, nogironlarni sifatli ijtimoiy xizmatlar bilan ta’minlash, ularni mehnat bozoriga moslashtirish va boshqa bir qator imkoniyatlar yaratish orqali tizimni kuchaytirish belgilangan edi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili“da amalga oshirishga oid davlat dasturida ham nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun bir qator qo‘shimcha kafolatlar belgilandi. Ya’ni, bundan buyon nogironlik idoralararo electron ma’lumotlar almashinuvi asosida, fuqarolarning ishtirokisiz belgilanishi aytildi. Bu albatta, ularning og‘irini yengil qilishda katta ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan bir qatorda, Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya ijrosi bilan o‘zaro uyg‘un holda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-fevralda matbuotda e’lon qilingan “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bu borada ulkan ahamiyat kasb etganini e’tirof etish o‘rinlidir[4]. Bu Qarorning maqsadi birinchi navbatda, inson huquqlari shuningdek, nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarining kafolatlarini mustahkamlashdan iborat va bundan tashqari, inklyuziv rivojlanish, aholining barcha qatlamlarining teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishlarini ta’minlashda samarali ishlar olib borish, nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyat hayotida uning barcha sohalarida qatnashishlari uchun katta sharoitlar yaratib berishdan iborat edi.

Mazkur tadqiqotning metadologiyasi nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash siyosatini tizimli tahlil qilishga asoslandi. Tadqiqotda tizimli tahlil usuli ya’ni davlat siyosati, normativ-huquqiy hujjatlar va ijtimoiy xizmatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog’liqliklari o‘rganildi, qiyosiy tahlil, kontent-analiz uslublaridan foydalanildi.

Tahlil va natija

ISSN 3030-3907

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash siyosati izchil rivojlanmoqda va xalqaro standartlarga yaqinlashmoqda. Siyosiy islohotlar, ijtimoiy xizmatlar tizimi, bandlik imkoniyatlari hamda reabilitatsiya yo‘nalishidagi o‘zgarishlar ijobiy natijalar bermoqda. Shu bilan birga, hududiy nomutanosibliklar, infratuzilma moslashuvchanligi va mahalliy darajadagi xizmatlar sifati bo‘yicha takomillashtirish zaruligi aniqlangan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash siyosatini rivojlantirish bugungi kunda jamiyatning barqaror va inklyuziv rivojlanishi uchun muhimdir. Zamonaviy siyosatning asosiy yo‘nalishlari inklyuziv ta’limni rivojlantirish, sog‘likni saqlash va reabilitatsiya xizmatlarini takomillashtirish, ijtimoiy himoya va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashdan umuman olganda, ular uchun hamma sohada imkoniyatlar yaratib berishdan iborat. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash siyosatini rivojlantirish nafaqat ularning turmush darajasini oshiradi, balki butun jamiyatning ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillarini mustahkamlaydi.

Ushbu yo‘nalishlar orqali nogironligi bo‘lgan shaxslar nafaqat ijtimoiy himoyaga ega bo‘lishadi, balki, o‘zini mustaqil, faol va jamiyat hayotida to‘liq ishtirok etuvchi shaxs sifatida his qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shuningdek, xalqaro tajriba va hamkorlikni tadbiq etish orqali O‘zbekiston nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada samarali va zamonaviy darajaga olib chiqishi mumkin.

Takliflar

1. Reabilitatsiya xizmatlarini kengaytirish va sifatini oshirish
2. Inklyuziv ta’limni rivojlantirish, qo‘shimcha pedagogic yordam tizimini mustahkamlash.
3. Bandlik va kasb-hunarga o‘rgatish imkoniyatlarini kengaytirish.
4. Jamoat infratuzilmasini mukammallashtirish, panduslar, liftlar va transport qulayliklarini oshirish.
5. Jamiyatda inklyuziv madaniyatni kuchaytirish, aholini nogironlar huquqlari va ehtiyojlari haqida xabardor qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashr. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 B.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 15-oktabrdagi O‘RQ-641-son qonuni. https: //lex.uz/docs/5049511

ISSN 3030-3907

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar Strategiyasi. – PF-4947, 2017-yil 7-fevral.
4. “Xalq so‘zi” gazetasining 2023 yil 3 mart kungi 44-soni.

ISSN 3030-3907